

QAMBARNISO ASARLARIDA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR TAHLILI.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Ahrorova Madina Rahmatovna

madinaakhrorova93@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mumtoz shoirlar degandan bizning ko`z oldimizga Anbar Otin, Uvaysiy, Nodirabegim hamda Zebinisolar keladi. Lekin davlatchilik tariximizda o`z o`rniga ega bo`lgan yana bir adiba borki uning nomoi manbalarda deyarli uchramaydi. Muqimiyning qarindoshi deya tilga olingan Qambarniso ijodi va faoliyatiga boida ma`lumotlar ushbu maqolada keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: ocherk, syezd, taloq xati, paranji, qozixona, analhaq, boittifoq, mushaira, suzoq, qamar, hajviy, jafokash,

Qambarniso haqidagi ma`lumotlar Amonulloning “Shoiraning taqdiri” ocherkida berilgan. Unda aytilishicha Qambarniso Muqimiyning qarindoshi va shogirdi deyilgan. Shoiraning yolg`iz mushoirasi To`xtasin Jalolov xizmatlari tufayli bizgacha yetib kelgan. O`zbek shoirlari risolasida ushbu mushoirani keltirgan. Mushoira Oshiq taxallusi bilan ijod qilgan Sulaymon Mirza Muhammad o`g`li oshiq devoni orqali bizgacha yetib keladi. Bu mushoiraning yozilish tarixi ham ajoyib. Keling “O`zbek shoirlari”da keltirilgan ushbu hikoyani siz bilan bo`lishsam. Mirza Muhammad o`g`li oshiq uzoq yillar O`sh qozixonasida vakil bo`lib ishlagan. U yerdagi qozilarning nohaqsizligidan shikoyat qilib hajviy she`rlar yozgan. Inqilob arafasida uni “Suzoq (hozirgi jalolobodga yaqin bir tuman) bir sayozga(syezd, yig`ilish) ga chaqirdilar. Yig`ilishdan so`ng barcha chiqib ketgach, qozixonaga bir erkak bilan ayol kirib boittifoq taloq xati so`raydi. Taloq xati yozilib, qo`l qo`yish uchun paranjilik xotinga beriladi. Ayol xatga qo`l qo`yib qoziga uzatadi. Qozi xatga qarab yuzlarida taajub alomati bilan xatni menga uzatadi. Men ham xatga qaradim va ko`zlarimga ishonmadim. Xotin eng mohir xattot qalami bilan: “Taqdir

o`qin nishoni Qambarniso jafokash” deb qo`l qo`yibdi. Men ehtirom bilan xotindan kimdan ta`lim olganini so`radim. U esa “Qo`qonlik qarindoshimiz shoir Muqimiydan” deb qisqa javob berdi. Ana shu savol- javoblardan keyin men tegajaklikka o`tib, darhol boshqa bir qog`ozga :

*Oshiqning muddaosi Qambar pari nisodur,
Orazlari qizil gul, kokillari qarodur.*

baytini yozib: - Singlim, taloq xatiga noto`g`ri imzo qo`yibsiz , deb baytni uzatdim. Xotin shu zahotiyoq Qalam olib javob uzatdi:

*Kokulga qo`l uzatma ey oshiqi balokash,
Ishq ahliga bu kokul go`yoki ajdarhodur.*

Mushoira shu yerda uzilib qoladi. Oshiq Qambarnisoni qidirib topadi va mushoirani davom ettiradi. Uning tahlilini keyinroq siz bilan mushohada qilamiz. Qambarniso eridan taloq xati olgach, Qo`qonga ketadi. Shoir oshiq sovg`a-salomlar olib uning ortidan boradi. Sil kasaliga uchragan shoira oradan ko`p vaqt o`tmay vafot etadi. Qambarniso va Sulaymon oshiq mushoirasida Mahzuna va Fazliy mushoirasining izlari ham mavjuddir. Masalan Fazliy Mahzuna bilan suhbatda “Masturai suhang`a po`shidalig` munosib” deb aytgan bo`lsa, Qambarniso Oshiq shoirga javobida “allomai zamong`a andisha ziynat ermish” deb javob aytadi. Oshiqning keying murojatlarida ham ma`shuqaning Zulfi va boshqa sifatleri tilga olinadi. Bu ishqiyy g`azallarda ko`p tilga olingan obrazdir. Bunga javoban shoiraning baytlari puxta va teranligi bilan ajralib turadi. Oshiq murojatida Qambarnisoga qarat “senga jon birla molim hadya bo`lsin” deb ayatadi. Qambarnisoning javobida Oshiq so`zlarining beburdligidan kinoya ma`nosi barq urib turadi:

*Mol ila jonni netgum, hosilsiz ersa maqsad,
Kechdim alar baridan, bu barcha bebaqodur.*

Qambarnisoning javoblarida adabiyotning uzoq tarixi bilan yaqin tanish shoiraning bilimi Ravshan anglashib turadi. U o`z javoblarida tarixiy voqealar, ana shu tarixiy voqealar bilan bog`liq rivoyatlarni mohirona eslaydi va tasvirlaydi. Oshiq o`z murojatida zulfni ta`riflab, uni eng qorong`u kechaga o`xshatadi va “zulfing havasi bilan jonni tark etmoqda” deb aytadi. Qambarniso o`z javobida Anal- haq (Men haq) degani uchun

Xalafda dorga osilgan Mansur afsonasini eslab, o`z sochini ana shu dorning arqoniga o`xshatadi. Bu bilan u zulfga shunday obrazni Furqatning oshiq va ma`shuq o`rtasidagi mushoiraga asoslangan “Bir qamar siymoni ko`rdim baldan Kashmirda” deb boshlanuvchi g`azalda ham ko`rishimiz mumkin. Mushoira oxirida Qambarnisoning Oshiqqa behuda kishilarga so`zlashning noravoligini uqtiradi: “G`uncha ochilsa, uning sochilishi muqarrar” hikmatiga rioya qilib, o`zini o`zi munozaradan to`xtatishga undaydi. Mushoiraning bu bandlarida Mahzuna misralariga xos yuksak iffat bilan so`zlash ustun turadi:

*Allomai zamong`a andisha ziynat ermish,
Behuda xarza aytmoq bil, tavri norasodur,
Ochilsa g`uncha kelmish- sochilmog`i muqarrar,
Ortiq lab ochmoq endi, Qambarniso, xatodur.*

T.Jalolov bu mushoiraning qator variantlari bilan tanishib, ulardan birida Qambarnisoning javoblarida kotib tomonidan buzilib, “shoiraning g`ururi, viqori yerga urilib”, ko`chirilgan deb baholangan edi. Yuqoridagilardan shu narsa ko`rinadiki, mushaira o`zbek adabiyoti tarixida o`z o`rniga ega bo`lib, XIX asrda uning ko`pgina yaxshi namunalari yaratildi. Bularning asosiy maqsadi kishini shaxsini himoya qilish, dunyoviy muhabbatni e`zozlash maqsadlaridan tashqari, o`zbek ayollarining o`sha davrdagi og`ir qismatlarini ham hikoya qiladi.

Oshiq:

*Oshiqning muddaosi Qambar pari nisodur,
Orazlari qizil gul, kokillari qarodur.*

Qambarniso:

*Kokulga qo`l uzatma ey oshiqi balokash,
Ishq ahliga bu kokul go`yoki ajdarhodur.*

Oshiq:

*Zulfiing qarolig`din kasb etdi layli yaldo,
Zulfiing havosi birlan tandin bu jon barodur,*

Qambarniso:

Kokullarim Analhaq(men haq) dorini rishtasidur,

Mansur(sharq faylasuflaridan biri. Analhaq ya`ni men xudo degani uchun osib
o`ldirilgan osilsa anga qayda aro adodur

Oshiq:

Soyangda istirohat olmoq umid etarmen,

Furqat o`tida, jono, jonim kuyib barodur.

Qambarniso:

Soyamdin istirohat olmoq umid etma

Umidi istirohat Oshiqg`a noravodur,

Oshiq:

Jon birla mol hadya bo`lsin senga nigoro,

Hoki rahing ko`zimga bas, bo`lsa to`tiyo

Qambarniso:

Mol ila jonni netgum, hosilsiz ersa maqsad,

Kechdim alar baridan, bu barcha bebaqodur.

Oshiq:

Oshiqg`a rahm qilg`il, l ey rahmsiz jafujo`y

Qolma uvolimizga, ishqing biza balodur

Qambarniso:

Allomai zamong`a andisha ziynat ermish,

Behuda xarza aytmoq bil, tavri norasodur,

Ochilsa g`uncha kelmish- sochilmog`i muqarrar,

Ortiq lab ochmoq endi, Qambarniso, xatodur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mahbuba Qodirova, Muazzamxon. "O`zbekiston xotin qizlari" jurnali, 1958-yil №4]STR 136-138-bet.

2. Qodirova Mahbuba XIX asr o`zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri. T., Fan", 1977 184- bet (O`zb SSR FA A. Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi (891. 709 K- 577.

Jalolov T. O`zbek shoirlari. 1- kitob (XVII asrdan oktabr inqilobigacha). II nashr. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1970 344- bet. 891 709 J -252

3. Jalolov T. O`zbek shoirlari. 1- kitob. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1980 416- bet. 891 709 J -252

. B Valixo`jayev, Toxirov K., O`zbek adabiyoti tarixi. (XVI asr) o`quv qo`llanma-Samarqand, Samdu bashri. 2002 161- bet. 891 709 B -19